

**Tursunov Shoxinur Maxammatqosim o'g'li**  
**Farg'ona davlat universiteti**  
**Lingvistika (ingliz tili) ixtisosligi 2-kurs magistranti**

---

## **O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA “INKOR” TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA O'RGANILISHI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tilshunosligida inkor tushunchasining o'rganilishi, inkor tushunchasini ifodalovchi til birliklari, ularning struktur-semantik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Til, inkor, kategoriya, tasdiq, negativ ma'no, mutlaq inkor.

---

Inson o'z hayotiy tajribalari, kuzatishlari natijasida jamiyat va tabiatda yuz beradigan hodisalarni, qonun-qoidalarni o'rganib boradi. Kishi ongida aks etuvchi fikrlar hayotiy tajribalar asosida to'plangan xulosalar bo'lib, negativ xarakterdagi mantiqiy kategoriyaga xos hodisalardir. Negativ shakldagi (reallashmagan) fikr pozitiv holatiga o'tgach reallashadi. Boshqacha qilib aytganda, negativ fikr so'zlovchi shaxsgagina ma'lum, tinglovchiga esa noma'lum bo'lib, u pozitiv holatiga o'tgach, tinglovchiga ham oydinlashadi. Pozitiv fikr tilda gap orqali reallashadi. Tasdiq-inkor kategoriyasi kesimdan anglashilgan fikrning tasdiq yoki inkorini ifodalaydi.

Inkor - kategorial tipologik tushuncha birligi sifatida turli tizimli tillar ifoda planlarida bir ko'rsatkichli va ko'p ko'rsatkichli inkor belgilari orqali namoyon bo'ladi. Tillardagi bir inkorli va ko'p inkorli ifoda shakllari ularning ichki me'yori talablari va odatlari bilan bog'liq bo'lib, ushbu masala alohida yechimini topmagan dolzarb muammolardan biridir. Lingvistik tipologiya planida bir inkorlik va ko'p inkorlik muammosi tadqiqining murakkabligi, bir tomondan, ushbu masalaning dolzarbligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, unga nisbatan maxsus tipologik yondashuvni taqozo etadi. Jahon tilshunosligida inkor kategoriyasi ko'p tahlil qilingan bo'lsa-da, inkor kategoriyasini o'zbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan tadqiq etish hamda uning umumlisoniy mohiyatini ochish dolzarb masalalardan biridir. Inkor kategoriyasi doimo tilshunos olimlarning diqqat markazida turgan masalalardan biridir. Ushbu yondashuvlarning dolzarbligini hisobga olib, pragmatika va sotsiolingvistika muammolarini ko'rib chiquvchi doktorlik dissertatsiyalari yozildi. Bunday asarlar qatoriga M.X.Hakimovning “O'zbek pragmalingvistika asoslari”, M.X.Hakimova “Pragmalingvistika asoslari”, Sh.S.Safarova “Pragmalingvistika”, D.U.Ashurovaning “Kognitiv lingvistika”, “Ingliz tilidagi so'z yasalishining stilistik va pragmatik jihatlari” va boshqa asarlari; “Frazologiya pragmatikasi va uning matnli aktuallashuvi”; “Maqtoovning sotsiolingvistik va pragmalingvistik xususiyatlari” va boshqa bir qancha tilshunos olimlarimizning asarlarini misol qilib olishimiz mumkin. Mazkur masalaga bu qadar jiddiy e'tibor berilishi tekshirish obyektining o'ta murakkab va keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. Inkor kategoriyasi qadimiy tushunchalar qatoriga kiradi, chunki insoniyat yaratilibdiki, unga xizmat qilayotgan til vositalari va ular orqali o'z ifodasini topayotgan lingvistik kategoriyalar ham o'sha xalqning tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. So'nggi yillarda til nazariyotchilari yoki bu tildagi mavjud til birliklarining bajarayotgan vazifalariga ko'ra ularning mohiyatini aniqlashni lingvistikaning kun tartibiga qo'yishmoqda. Bu albatta, ma'lum tilning bajarayotgan vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Agar biz buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyning “Til so'zlovchining tilagini tinglovchiga yetkazuvchi tarjimondir” degan purma'no ta'rifidan kelib

chiqadigan bo'lsak, zamonaviy tilshunoslikning pragmatik lingvistika deb atalmish sohasiga bizning bobokalonimiz asos solganiga shubha qolmaydi.

Har qanday voqelik yoki xabarning tasdig'i bo'lganidek, uning qarama-qarshi tomoni, boshqacha qilib aytganda, inkori ham, shubhasiz, o'zini namoyon qiladi. Bu ikki qarama-qarshi nuqtada turuvchi tushunchalar fan taraqqiyoti davomida turli sohalarning, shu jumladan falsafa, mantiq, psixologiyaning o'rganish manbai bo'lib kelgan. To'g'ri, tasdiq va inkor kategoriyalari ko'p qirrali bo'lib, turli fanlar chorrahasiga joylashgan universal, umumlisoniy kategoriyalar toifasiga kiradi va u zamonaviy nazariy tilshunoslikda o'rganilishi eng muhim bo'lgan umumlingvistik kategoriya hisoblanadi, lekin har bir fan bu sermuammo masalani o'z maqsadi nuqtayi nazaridan turib tahlil etadi. Tilshunoslik tarixida tasdiq va inkor, bo'lishlilik va bo'lishsizlik kategoriyalari to'g'risida turlicha nazariyalar mavjud bo'lgan. Ammo masalaning asl mohiyati, ya'ni uning lingvistik voqelik ekanligi va ifoda vositalarining ma'lum tizimga tushgan majmuasi bo'lmasa, uni kategoriya sifatida tan olinib, tahlil talab tomonlari to'g'risida bahs yuritishning hojati ham bo'lmas edi.

Biz yuqorida inkorni universal, ya'ni jahon tillarining barchasida mavjud bo'lgan voqelik deb fikr yuritdik. Darhaqiqat, inkor universal lingvistik kategoriya sifatida barcha tillarning grammatik qurilishida o'z aksini topgan bo'lsa-da, lekin uni ifodalovchi til vositalari universallikka da'vo qilmaydilar. Chunki dunyodagi har bir til o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida ishlab chiqqan vositalar majmui orqali inkorning turli ko'rinishlarini ifoda etadilar.

Inkorning ko'rinishlari esa lingvistik adabiyotlarning shohidlik berishicha, turlichadir. Umuman, jahon tillarida lingvistik, aniqrog'i, grammatik ma'nolarni ifodalashda hamma vositalardan yoki usullardan teng foydalana olmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir til qandaydir lingvistik tushunchani ifoda etishda sintaktik yarus birliklariga murojaat etsa, boshqasi leksik yoki morfologik yarus birliklari orqali ifoda etiladi. Aslida lingvistik tushunchalarni qanday usul bilan ifodalanishi til toifasiga ham bog'liq bo'ladi. Jumladan, biz tadqiq etayotgan inkor kategoriyasi hind-evropa tillarining aksariyatida sintaktik voqelik deb tan olingan bo'lsa, bu hodisani turkiy tillarga nisbatan ayta olmaymiz. Chunki turkiy tillarda bu kategoriya aksariyat hollarda morfologik yarus birliklari orqali o'z ifodasini topadi.

Inkorning turli ko'rinishlarini tasnif qilish hozirgi davr tilshunoslari e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Shunga qaramay ayrim tilshunoslar yuqorida e'tirof etilgan fikrlardan kelib chiqib, jahon tillarida inkor kategoriyasining semantik turlarini tasniflaydi. Inkorning turlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ularning tartibiy joylashishi quyidagichadir:

1. Mutlaq inkor
2. Gap inkori
3. Miqdoriy inkor
4. Maxsus leksik inkor
5. Yarim inkor
6. Shaklan bo'lishli, ammo mazmunan bo'lishsiz inkor
7. So'z inkori

## 8. Sintaktik inkor

Inkorning ifoda vositalari boshqa grammatik kategoriyalarning markerlari kabi lingvistik tahlilning turli sathida kuzatiladi. Jahon tillarida, jumladan, biz tadqiq etayotgan ingliz tilida ular quyidagi lingvistik vositalarni qamrab olgan:

### 1. Inkor soʻzlar:

a) sodda - yoʻq; ingliz tilida no, never, none

b) qoʻshma - hech qachon, hech narsa, hech bir;

**2. Inkor yuklama** - na doimo maxsus shaxsli forma bilan qoʻshilib keladi

### 3. Inkor affikslar:

a) prefikslar: no-,be-; ingliz tilida in-, un-

b) suffikslar: -ma

Boshqa belgi va signallarga sal-pal va zoʻrgʻa (yarim inkor) ni kiritish mumkin. Bu soʻzlar ishtirok etgan gaplar boʻlishli tuzilishga, yaʼni maʼnoga ega boʻlsa-da, lekin uning zamirida qisman inkor maʼno yotadi. Ushbu “Men uni zoʻrgʻa taniyman” (I hardly know him)ning transformastion muqobili “Men uni yaxshi tanimayman” (I do not know him well), yaʼni “Men tanimoqchi boʻlgan shaxsni toʻliq koʻz oʻngimda ifoda eta olmayman” kabi tanlanadi. Tasdiq-inkor maʼnosini ifodalashda nol shakl (tasdiq), **-ma** boʻlishsizlik shakli **-emas**, **na** yordamchi, **yoʻq** mustaqil soʻzlari (inkor) ishtirok etadi. Misollar: **Majlis yarim kechagacha choʻzildi** (O.Muxtor). **Uzoqdan Navoiyning qorasi koʻringunga qadar u amirning kelishiga ishonmagan edi** (Oybek). **Na xotin, na farzand koʻrmagan, kimsasiz bechora bir yigit** (Uygʻun). **Mening farzandim yoʻq, gulbogʻlarim yoʻq.** (S.Nur)

Xulosa qilib aytganda “inkor” atamasi kecha yoki bugun paydo boʻlib qolgan emas. Ushbu atamani odamzod yaralgandan soʻng paydo boʻlgan va muloqotda ishlatilgan deb bemalol aytishimiz mumkin. Muloqot jarayonida biz xohlaymizmi yoʻqmi albatta inkorlardan foydalanamiz, boʻlishsizlik maʼnosini beruvchi gaplarni qoʻllaymiz. Tillardagi bir inkorli va koʻp inkorli ifoda shakllari ularning ichki meʼyoriy talablari va odatlari bilan bogʻliq boʻlib, ushbu masala alohida yechimini topmagan dolzarb muammolardan biridir. Lingvistik tipologiya planida bir inkorlik va koʻp inkorlik muammosi tadqiqning murakkabligi, bir tomondan, ushbu masalaning dolzarbligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, unga nisbatan maxsus tipologik yondashuvni taqozo etadi. Shuning uchun ham aynan ushbu maqolada inkorlarni oʻrganilish tarixi, inkor tushunchasi, ularning turlari, inkorlarni oʻrgangan va ular ustida tadqiqot olib borgan oʻzbek va ingliz olimlari, ular yozgan ilmiy asarlari tahlili va bir qancha inkorlarga doir misollar berib oʻtilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

1. Arutyunova N.D. Metafora // Lingvistik entsiklopedik lugʻat. - M.: Sovet Entsiklopediyasi, 1990. - S. 296-297.
2. Dyck T.A furgon. Til. Idrok. Aloqa. – M.: Taraqqiyot, 1989. – 312 b.
3. Vejbitskaya A. Til. Madaniyat. Idrok. - M.: Ruscha lugʻatlar, 1997. - 404 b.
4. Golubina K.V. Badiiy matndagi epitetning kognitiv asoslari (ingliz fantastikasi materiali boʻyicha): Diss. ... Ph.D. Fanlar. - M., 1998. - 159.

5. Hakimova M.X. O'zbek pragmalingvistika asoslari . – T., 2013
6. Safarova Sh.S. Pragmalingvistika. Monografiya. - T., 2008 yil